Axborot, axborot manbasi tushunchasi, rivojlanish tarixi, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni

Bayonov Ma’mur Hamroqulovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisda “axborot” va “axborot manbasi” tushunchalarining mazmuni, ularning ilmiy talqinlari hamda axborot manbalari bilan ishlash amaliyotining tarixiy bosqichlari tahlil qilingan. Qadimgi Xitoy va Rimdagi ilk axborot shakllaridan internet davrigacha bo‘lgan rivojlanish yo‘li ko‘rib chiqilib, davlat hokimiyati manbalarining o‘rni, jurnalist va manba munosabatlarining huquqiy-etik asoslari hamda Turkistondagi ilk matbuot tajribasi yoritilgan. “Axborot manbasi” tushunchasiga muallif yondashuvi asoslangan.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot manbasi, axborot izlash, davlat hokimiyati, ommaviy axborot vositalari, matbuot tarixi, kasb etikasi, jadid matbuoti.

Аннотация. В тезисе анализируются содержание понятий «информация» и «источник информации», их научные трактовки и исторические этапы практики работы с источниками информации. Рассмотрен путь развития от ранних форм информации в Древнем Китае и Риме до эпохи интернета, освещены роль источников государственной власти, правовые и этические основы отношений журналиста и источника, а также опыт первой прессы Туркестана. Обоснован авторский подход к понятию «источник информации».

Ключевые слова: информация, источник информации, поиск информации, государственная власть, средства массовой информации, история прессы, профессиональная этика, джадидская пресса.

Abstract. The thesis analyses the content of the concepts of “information” and “information source”, their scholarly interpretations and the historical stages of working with information sources. It traces the development from early forms of information in ancient China and Rome to the internet era, and examines the role of state authorities as sources, the legal and ethical foundations of the relationship between journalist and source, and the experience of the first press in Turkestan. The author’s approach to the concept of “information source” is substantiated.

Keywords: information, information source, information retrieval, state power, mass media, press history, professional ethics, Jadid press.

Kirish

Internet ixtirosi insoniyatni uzluksiz axborot iste’molchisiga aylantirdi, mediamahsulot tayyorlovchi kanallar sonining ortishi esa sifatli kontent talabini yuzaga keltirdi. Axborot bozoridagi chegarasiz takliflar jurnalistning tezkor va xolis ishlashini, ishonchli manbalarga

murojaat etishini prinsipial masalaga aylantirdi. Shu sababli axborot manbasini ilmiy obyekt sifatida o‘rganish, uning mazmuni va tarixiy bosqichlarini aniqlash zarurati tug‘ildi.

Hindiston statistika instituti xodimi I.K.Ravichandra Rao yondashuviga ko‘ra, axborotlashgan jamiyatda davlatlar axborotga boy va kambag‘al guruhlarga ajraladi. Manba turlarining ko‘pligi axborotga boy davlatlarning moliyaviy yuksalishiga ta’sir ko‘rsatadi, kambag‘al davlatlarda esa teskari natija kuzatiladi [1].

Bugungi axborot iste’molchisi o‘qigan va eshitganlarini manbalardan tekshirish lozimligini tushunmoqda. OAV ham manbaning ishonchlisini tanlash va u bilan ishlash qoidalariga amal qilishga intilmoqda. Zero, tabiat va jamiyatda yuz bergan har qanday voqea-hodisaning to‘g‘riligini isbotlovchi asos axborot manbasidir. Tezisning maqsadi “axborot” va “axborot manbasi” tushunchalarining mazmuni hamda tarixiy rivojlanishini, ularning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

“Axborot” tushunchasi. Axborot ma’lum bir holat, voqea, hodisa yoki jarayon haqidagi ma’lumotdir. U matn, tasvir, ovoz, raqam, grafika va boshqa shakllarda taqdim etilishi mumkin. Axborot odamlar o‘rtasidagi muloqot, qaror qabul qilish, ta’lim va ilmiy izlanishlarning asosiy tayanchi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sanaladi.

Tushunchaning ildizlari insonda ma’lumotni o‘z ehtiyojlariga moslashtirish va almashish zarurati tug‘ilgan davrlarga borib taqaladi. Tushunchaning tizimli qo‘llanishi XIX–XX asrlarda matbuot, telegraf va telefon aloqasi paydo bo‘lishi bilan kuchaydi. Amerikalik matematik va muhandis Klod Shennonning 1948-yildagi ishlari esa axborotni kodlash, saqlash va uzatish muammolariga ilmiy asos bo‘ldi.

“Axborot manbasi” tushunchasi. Bu tushuncha “axborotni izlash” atamasi bilan uzviy bog‘liq. Atamani fanga kiritgan amerikalik matematik K.Muerse axborotga oid so‘rov mavjud bo‘lgandagina axboriy qidiruv amalga oshadi, degan fikrni ilgari suradi [2]. Olimning qarashlari matematikaga asoslangan bo‘lsa-da, bu g‘oya jurnalistlarning axborot izlash jarayoniga mos keladi.

“Manba” so‘zi arabchada “boshlanish”, “ibtido”, ko‘chma ma’noda esa biror ish-harakatning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan narsa mazmunida qo‘llaniladi [3]. “The Wall Street Journal”ning jurnalistikaga oid atamalar lug‘atida jurnalistik asarni axborot bilan ta’minlovchilar, yozishmalar, hujjatlar va voqealar manba sifatida e’tirof etiladi [4].

Tushunchani turli mamlakat olimlari o‘ziga xos talqin qilgan. Amerikalik olimlar S.Sh.Sundar va K.Nass, shuningdek, E.M.Rogers va D.L.Kinkeyd muloqotning deyarli barcha klassik modellarini manba sifatida qabul qiladi [5; 6]. Ruminiyalik L.V.Sabo va I.Petrovichi insonga axborot yetkazuvchi unsurlarni manba deb hisoblaydi [7]. Rossiyalik K.N.Tendit manbani axborot tizimi unsuri sifatida baholab, uni shaxs yoki hujjatli haqiqat ekanini aytadi [8]. V.A.Galashev esa “axborot” tushunchasi manba, iste’molchi va uzatuvchini qamrab olishini qayd etadi [9]. O‘zbekistonlik olimlar N.Muratova, N.Toshpo‘latova va G.Alimova manbani birinchi fikr bildirgan inson yoki harakat sifatida izohlaydi [10].

Bizningcha, “manba” tushunchasi jurnalistning material tayyorlash jarayonida murojaat etgan barcha obyekt va predmetlarni anglatadi. Axborot manbasi esa ma’lumotlarning kelib chiqishi, yangilanishi va tarqatilishida ishtirok etuvchi obyekt yoki vositadir. U yozma, ovozli, ko‘rsatkichli, vizual yoki raqamli shaklda bo‘lishi mumkin. Jurnalist manba bilan uzluksiz munosabatda bo‘ladi, manbasiz ijod namunasi esa subyektiv bo‘lib qoladi.

Jurnalist xabar tayyorlashda “Kim?”, “Nima qildi?”, “Qayerda?”, “Qachon?”, “Nima sababdan?”, “Qanday?” kabi savollarga javob izlaydi. A.V.Kolesnichenko va B.Lozovskiy bu ro‘yxatga “Jurnalist bu haqida qayerdan xabar topdi?” degan savolni ham qo‘shadi [11; 12]. Amerikalik futurolog E.Toffler ham ishonchli axborotni topish va uni to‘g‘ri tahlil qilish axborotni birinchi bo‘lib to‘plashdan jiddiyroq masalaga aylanishini bashorat qilgan [13].

Tarixiy bosqichlar. K.N.Tendit va N.V.Shelkovnikova ma’lumotlariga ko‘ra, ilk gazeta ko‘rinishidagi manbalar qadimgi Xitoyda Xan sulolasi davriga mansub bo‘lib, “dzibao” varaqasi davlat amaldorlari uchun siyosiy ma’lumotlarni aks ettirgan [14]. B.Y.Misonjnikov va A.N.Teplyashinaning qayd etishicha, Yuliy Sezar miloddan avvalgi 59-yilda “Acta diurna senatus ac populi” taxtachalariga davlat hayotiga oid muhim hodisalarni yozib borishni buyurgan [15]. L.V.Litkina bu matnlarda nutqlar tahrirsiz, muallif ismi va aniq sanasi bilan berilganini ko‘rsatadi [16]. Demak, jurnalistikaning dastlabki manbalari davlat tashkilotlari mas’ullari va ular taqdim etgan hujjatlar bo‘lgan, bu yo‘nalish hozirgacha ahamiyatini yo‘qotmagan.

Gutenbergning bosma dastgohi ixtirosiga qadar ibodatxona va saroylar huzurida axborot xizmatlari mavjud bo‘lgan [17]. XVI asrda Yevropada savdo shaharchalari paydo bo‘lishi bilan tijorat xabarlarini yetkazuvchi yollanma ishchilar ko‘paydi va bu ma’lumotlar gazeta muharrirlariga haq evaziga sotila boshladi. Biroq xabar ko‘pincha bitta manbadan og‘zaki olinar, uni tekshirish imkoni bo‘lmagan. A.Tertichniy mish-mishlarning ishonchli axborotdan arzonligi, senzura va auditoriyani manipulyatsiya qilish jurnalistni ishonchsiz manbaga undaganini ta’kidlaydi [18].

XVII asrda axborot yig‘ishning tashkiliy shakllari kuchaydi. “La Gazette” asoschisi Teofrast Renodo tashabbusi bilan 1629-yilda “Manzillar va uchrashuvlar byurosi” tuzildi [19]. F.Mo‘minov fikricha, asrning ikkinchi yarmida jurnalistika ijtimoiy institut sifatida shakllana boshlagan [20]. 1704-yilda chiqqan “The Boston News-Letter” esa Britaniya nashrlaridan olingan xabarlar manbasini ko‘rsatib borgan [14].

M.Makluen sivilizatsiyani og‘zaki kommunikatsiya, yozma-bosma madaniyat va “elektron jamiyat” bosqichlariga ajratadi [21]. Manbalar ko‘lami shu mantiq bilan kengaydi. 1835-yilda Sharl Lui Gavas ilk axborot agentligini tuzdi [22], Qrim urushi davrida fotografiya qo‘llanildi [14], XIX asr oxirida radio ixtiro qilindi. Keyinroq portallar, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar ham manbaga aylandi. Bu davrda huquqiy-etik mezonlar ham shakllandi: 1918-yilda Fransiyada faktlarni tekshirmay uzatish va buzib ko‘rsatishni kasbiy jinoyat deb belgilagan kodeks yaratildi [23].

OAV va manba munosabati siyosiy tuzumga ham bog‘liq bo‘lgan. Yevropa va Amerikadan farqli ravishda SSSRda yopiq siyosat yuritilgani bois mamlakat hayoti

birtomonlama yoritilgan. Rasmiy manbalar xabarlarni har doim ham haqiqatga mos taqdim etmagani ularga nisbatan ishonchning pasayishiga olib kelgan.

Turkiston tajribasi. O‘lkada chiqqan ilk gazeta “Turkestanskiye vedomosti”da davlatga oid harbiy va siyosiy ma’lumotlar ko‘proq o‘rin olgan, dastlabki materiallarda aniq manba va guvohlar ismi keltirilmagan [24]. Jadidlar esa matbuotni ma’rifat vositasi deb bilgan. 1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidov muharrirligida birinchi o‘zbek gazetasi “Taraqqiy” chiqdi, undan so‘ng Munavvar Qorining “Xurshid” va Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetalari nashr etildi.

Xulosa

Birinchidan, “axborot manbasi” jurnalist material tayyorlashda murojaat etgan barcha obyekt va predmetlarni qamrab oluvchi keng tushunchadir. Ikkinchidan, ilk davrlardan boshlab davlat tuzilmalari asosiy manba bo‘lib kelgan va bu holat ularning axborot mas’uliyatini kuchaytiradi. Uchinchidan, bir davrda turli davlatlarda yoki bir makonda turli davrlarda faoliyat yuritgan jurnalistlarning manbalari farq qilgan. Bunga tahririyatlarning iqtisodiy va siyosiy erkinlashuvi, texnika yutuqlari va matbuot erkinligi darajasi ta’sir ko‘rsatgan. To‘rtinchidan, xolislik, ishonchlilik va to‘liqlik tamoyili makon va zamon tanlamaydi, axborotni tezkor olish va yetkazish esa doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ravichandra Rao I.K. Sources of information with emphasis on electronic resources. DRTC Annual Seminar on Electronic Sources of Information, 1–3 March 2000. – P. 2.
2. Алексеева Е.А. Современная информационная среда: особенности работы с источниками информации // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. 2018. Том 3. – С. 640.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 535.
4. The Wall Street Journal (Glossary of terms: journalism). News Reporting and Writing, by Melvin Mencher. The McGraw-Hill Companies, Inc., 1997.
5. Sundar S.S., Nass C. Conceptualizing Sources in Online News // Journal of Communication. March, 2001. – P. 53.
6. Rogers E.M., Kincaid D.L. Communication networks: Toward a new paradigm for research. – New York: Free Press, 1981. – P. 34–35.
7. Szabo L.V., Petrovici I. The importance of newsgathering in communication // Analele universităţii de vest din Timişoara, seria filosofie şi ştiinţe ale comunicării. Vol. IX (XXVI), 2014. – P. 39.
8. Тендит К.Н. Теория и практика массовой информации: учеб. пособие. – Комсомольск-на-Амуре: ФГБОУ ВПО “КнАГТУ”, 2013. – С. 31.
9. Галашев В.А. Системы поиска и обработки информации. Учеб.-метод. пособие. – Ижевск: Удм. гос. ун-т, 2011. – С. 40.
10. Muratova N.F., Toshpo‘latova N.K., Alimova G.B. Fake news: mediada dezinformatsiya. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – B. 61.

11. Колесниченко А.В. Настольная книга журналиста. Учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2013. – С. 36.
12. Лозовский Б. Журналистика: профессиональные стандарты. – Екатеринбург, 2007. – С. 32.
13. Toffler A. Powershift: knowledge, wealth, and violence at the edge of the 21st century. – USA: Bantam Books, 1990. – P. 338.
14. Тендит К.Н., Шелковникова Н.В. История журналистики. Ч. 1: учеб. пособие. – Комсомольск-на-Амуре: ФГБОУ ВПО “КнАГТУ”, 2012. – С. 21, 45, 84.
15. Мисонжников Б.Я., Тепляшина А.Н. Журналистика: введение в специальность: учеб. пособие. – СПб.: Филол. ф-т СПбГУ, 2012. – С. 12–13.
16. Лыткина Л.В. История протожурналистики древних цивилизаций // Управленческое консультирование. 2016. № 7. – С. 181–183.
17. Mo‘minov F., Nurmatov A., Soliyeva M. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 137.
18. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 294.
19. Пивоварова М.И. Теофраст Ренодо: начало эпохи печатной рекламы во Франции // Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2013. № 2. – С. 198.
20. Mo‘minov F. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – Toshkent: Universitet, 1998. – B. 4–5.
21. McLuhan M. The Gutenberg galaxy: the making of typographic man. – Canada: University of Toronto Press, 1962. – P. 36.
22. Maimaitimin V. Çin ulusal haber ajansi: Xinhua ve güncel Çin basini. Yüksek Lisans Tezi. – İstanbul, 2014. – B. 11–12.
23. Qosimova N., Fayzullayeva H. Media etika. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 34.
24. Tavallo. Ey Vatan, ezgu Vatan. To‘plovchi Dildora Rahmonova. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 166.